

# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

# №5

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

# 2026 MAY



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™  
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic  
Resource  
Index  
ResearchBib

ISSN INTERNATIONAL  
STANDARD  
SERIAL  
NUMBER  
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS  
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ  
БИБЛИОТЕКА  
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ  
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ  
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА  
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, may.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afforovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi  
05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari  
05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash  
05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari  
05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti  
05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi  
05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari  
05.01.07 – Matematik modellashtirish  
05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt  
05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik  
05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari  
05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti  
05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash  
05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi  
05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari  
05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari  
05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi  
05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish  
05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)  
05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar  
05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari  
10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik  
10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti  
08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi  
08.00.02 – Makroiqtisodiyot  
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti  
08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti  
08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti  
08.00.06 – Ekonometrika va statistika  
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit  
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit  
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti  
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti  
08.00.11 – Marketing  
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot  
08.00.13 – Menejment  
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari  
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti  
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya  
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

STERJEN KO'NDALANG KESIM YUZASI ELLIPS SHAKLIDAGI TRANSFORMATORNING QISQA TUTASHUV PAYTIDAGI MEKANIK ZO'RIQISHGA CHIDAMLILIGI .....	10
<b>Bekishev Allabergen Yergashevich, Yakubova Dilfuza Kuanishovna, Saidova Nozima Akkulovna</b>	
ВЛИЯНИЕ ДЕМОГРАФИЧЕСКОЙ ДИНАМИКИ НА РАЗВИТИЕ СФЕРЫ УСЛУГ: ЭКОНОМЕТРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РЕГИОНОВ УЗБЕКИСТАНА .....	19
<b>Мусаева Шоира Азимовна, Муйинжонов Хусейн Алишерович</b>	
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ЦИФРОВИЗАЦИИ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИХ КОМПАНИЙ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО АДАПТАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ .....	28
<b>Габбарова Ильмира Володиевна</b>	
BALAND BINOLAR FASADLARINI PARDOZLASH TEXNOLOGIYALARINI EKSPLOATATSION ISHONCHLILIK VA XIZMAT MUDDATINI UZAYTIRISH ASOSIDA OPTIMALLASHTIRISH .....	34
<b>Amirov Shavkat Rahmatullayevich</b>	
ИНТЕГРАЛЬНАЯ ОЦЕНКА УСТОЙЧИВОГО ЦИФРОВОГО РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА И ЭФФЕКТИВНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТУРИСТСКОГО ПОТЕНЦИАЛА БУХАРСКОЙ ОБЛАСТИ .....	41
<b>Усманова Азиза Баходировна</b>	
PEREGONDAGI HARAKATNI BOSHQARISH TIZIMLARINI MIKROPROTSESSORLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRILGAN TUZILMAVIY SXEMASINI ISHLAB CHIQUISH .....	46
<b>Xujamkulov Eldor G'ayratjon o'g'li</b>	
INVESTITSIYALAR HAJMINI OSHIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI .....	55
<b>Alimova Dilafro'z Tohir qizii</b>	
HUDUDLAR KESIMIDA AHOLI O'SISHINING BANDLIK DARAJASIGA TA'SIRINI EKONOMETRIK BAHOLASH (O'ZBEKISTON MISOLIDA) .....	61
<b>Xusniddinova Gulnoza Ulug'bek qizi</b>	
QUYOSH FOTOELEKTRIK PANELLARI SAMARADORLIGIGA ATROF-MUHIT OMILLARI VA CHANGLANISHNING TA'SIRI HAMDA ULARNI KAMAYTIRISHGA QARATILGAN INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR .....	67
<b>Botirov Bozorbek, Iskandarova Charos, Avazov Jonibek, Sultonov Abror</b>	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ..	75
<b>Rajapov Xayrulla Bekdurdievich, Sharipova Lobar Umrbek qizi</b>	
INTERPOLATSION TIKLASH ALGORITMLARINING OCR ANIQLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASH .....	82
<b>Aliyev Nodirbek Hamidullo o'g'li</b>	
IKORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA INSTITUTSIONAL OMILLARI .....	90
<b>Muxtorova Shaxlo Farxodovna</b>	
O'ZBEKISTONDA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA MANBALARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARINI EKONOMETRIK PROGNOZLASH .....	94
<b>Qo'ziboyev Behzod Hamidovich</b>	
KPI-BASED PERFORMANCE MANAGEMENT AND ITS IMPACT ON EMPLOYEE PRODUCTIVITY .....	99
<b>Sultanova Kamila Mukhtorali kizi</b>	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH .....	104
<b>Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li</b>	
FARG'ONA VILOYATI MAHALLALARIDA TADBIRKORLIK VA HUNARMANDCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL OMILLARINI BAHOLASH .....	110
<b>Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich</b>	



MHXS STANDARTLARIGA O'TISH: KORXONALAR UCHUN AMALIY MUAMMOLAR VA YECHIMLAR ....	116
<b>Eshniyazova Yulduz Yuldashbayevna</b>	
TURMUSH FAROVONLIGINI BAHOLASHNING KO'P O'LCHOVLI USULLARI VA MEZONLARI .....	120
<b>Turdikulova Moxira Maxmasharifovna</b>	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MOLIVAVIY-IQTISODIY IMPERATIVLARI .....	125
<b>Kaxorova Zamira Safaraliyevna</b>	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA RO'Y BERISHI MUMKIN BO'LGAN BAXTSIZ HODISALAR VA UNI BARTARAF ETISH CHORA-TADBIRLARI .....	131
<b>Dehqonov Oyatillo Mansurbek o'g'li, Abduraxmanov Abdurashid Ataxanovich</b>	
VTULKA DETALINI ISHLAB CHIQRISHDA SHTAMPLASH TEXNOLOGIK JARAYONINI ISHLAB CHIQRISH... .....	136
<b>Abdullayev Fatxulla, Xasanov Kamoliddin, Yolg'ashova Madina, Jo'rayev Muhiddin</b>	
JAHON MOLIVAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI.....	140
<b>Qobilova Nodira Qayumjon qizi, Normurodov X.E.</b>	



# JAHON MOLIYAVIY TIZIMINING TRANSFORMATSIYASI

**Qobilova Nodira Qayumjon qizi**

O'zbekiston Milliy universiteti talabasi

**Normurodov X.E.**

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasining nazariy va amaliy asoslari tahlil qilinadi. Muallif markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasida xorijiy dominant valyutalar (dollar, yevro va funt sterling) hukmronligining pasayishi va raqamli yevro istiqbollari hamda uning tarkibiy qismlarining jahon iqtisodiyotiga ta'sirini asoslab beradi. Maqolada markaziy bank raqamli valyutalari, geosiyosiy raqobat, texnologik inqilob va yangi to'lov tizimlarining global iqtisodiy muvozanatga strategik ta'siri keng yoritilgan. Ta'riflangan konsepsiyada dollarning global hukmronligiga qarshi alternativlarning paydo bo'lishi, ko'p qutbli moliyaviy arxitektura shakllanishi va yangi moliyaviy tartibotning O'zbekiston uchun imkoniyatlari aniqlangan. Shuningdek, dollar o'rniga ko'p valyutali tizimga o'tish va mintaqaviy moliyaviy hamkorlikni kuchaytiruvchi mexanizmlar taklif etilgan. Xulosa o'laroq, muallif davlat tomonidan raqamli moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish zarurligini ta'kidlaydi. Uzoq yillar davomida jahon moliyaviy tizimidagi xalqaro valyuta munosabatlarida dominantlikning saqlanib qolishi tizimning yangi samarali transformatsiyasiga zarurat borligini yuzaga chiqarmoqda. Muallif maqolada ko'rilgan konsepsiyalarni ilgari surishda moliyaviy tahlil, ikki yoqlama taqqoslash, statistik dinamika usullaridan keng foydalangan.

**Kalit so'zlar:** transformatsiya, CBDC, geosiyosiy raqobat, texnologik inqilob, ko'p qutbli moliyaviy arxitektura.

**Аннотация:** В данной статье анализируются теоретические и практические основы трансформации мировой финансовой системы. Автор обосновывает снижение доминирования иностранных резервных валют (доллара, евро и фунта стерлингов) в процессе трансформации мировой финансовой системы под влиянием цифровых валют центральных банков (CBDC), а также перспективы цифрового евро и влияние его структурных компонентов на мировую экономику. В статье подробно освещены стратегическое влияние цифровых валют центральных банков, геополитической конкуренции, технологической революции и новых платёжных систем на глобальное экономическое равновесие. В представленной концепции определены появление альтернатив глобальному доминированию доллара, формирование многополярной финансовой архитектуры и возможности нового финансового порядка для Узбекистана. Также предложены механизмы перехода от долларовой системы к мультивалютной системе и усиления регионального финансового сотрудничества. В заключение автор подчёркивает необходимость развития цифровой финансовой инфраструктуры со стороны государства. Сохранение доминирования в международных валютных отношениях мировой финансовой системы на протяжении многих лет свидетельствует о необходимости новой эффективной трансформации системы. При продвижении рассмотренных в статье концепций автор широко использовал методы финансового анализа, двустороннего сопоставления и статистической динамики.

**Ключевые слова:** трансформация, CBDC, геополитическая конкуренция, технологическая революция, многополярная финансовая архитектура.

**Abstract:** This article analyzes the theoretical and practical foundations of the transformation of the global financial system. The author substantiates the decline in the dominance of foreign reserve currencies (the US dollar, euro, and pound sterling) in the transformation of the global financial system under the influence of central bank digital currencies (CBDCs), as well as the prospects of the digital euro and the impact of its structural components on the world economy. The article extensively examines the strategic influence of central bank digital currencies, geopolitical competition, technological revolution, and new payment systems on the global economic balance. The described concept identifies the emergence of alternatives to the global dominance of the US dollar, the formation of a multipolar financial architecture, and the opportunities of the new financial order for Uzbekistan. In addition, mechanisms for transitioning from a dollar-based system to a multi-currency system and strengthening regional financial cooperation are proposed. In conclusion, the author emphasizes the necessity of developing digital financial infrastructure by the state. The continued dominance in international currency relations within the global financial system over many years indicates the need for a new and effective transformation of the system. In promoting the concepts discussed in the article, the author widely used methods of financial analysis, bilateral comparison, and statistical dynamics.

**Keywords:** transformation, CBDC, geopolitical competition, technological revolution, multipolar financial architecture.



## KIRISH

Jahon moliya tizimidagi strukturaviy o'zgarishlarni har tomonlama tahlil qilayotgan iqtisodchilar davlat tomonidan ularning ta'sirini o'rganishga yo'naltiriladigan moliyaviy resurslarni bosqichma-bosqich ko'paytirish zaruratini o'rinli deb hisoblaydilar. Bunday yondashuv, ularning fikricha, moliyaviy vositachilikni diversifikatsiya qilish hamda global moliyaviy integratsiyaning barqaror ta'siri ostida mustahkam pul-kredit siyosati uchun zarur bo'lgan strategik asosni shakllantiradi.

Davlatning moliyaviy tizim barqarorligini ta'minlashga qaratilgan institutsional va monetar mexanizmlarni kuchaytirish siyosati, eng avvalo, investitsiyalar uchun ishonchli moliyaviy muhit yaratish hamda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa valyuta kursidagi keskin tebranishlarni, moliyaviy beqarorlikni va inflyatsiya xavfining kamayishini ta'minlab, pul-kredit siyosati orqali makroiqtisodiy muvozanatni saqlashga hamda barqaror iqtisodiy o'sishni shakllantirishga yordam beradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasi bo'yicha kompleks tadqiqotlar ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC) va yashil moliya konsepsiyalari ushbu jarayonni jadallashtirmoqda. Bu o'zgarishlar global moliyaviy tizimning raqamlashtirilishi va barqaror rivojlanish tamoyillari bilan chambarchas bog'liq.

Nobel mukofoti sovrindori iqtisodchi J. Stiglitz jahon moliyaviy tizimining hozirgi bosqichdagi muammolarini va transformatsiyasi zaruriyatini "Globalization and Its Discontents" hamda "Freefall" asarlarida ta'kidlab o'tgan. Stiglitz xalqaro moliya institutlarining (IMF, Jahon banki) siyosatini qayta ko'rib chiqish hamda raqamli va barqaror moliya tamoyillarini joriy etish zarurligini ilgari suradi. Uning fikricha, moliyaviy tizimning transformatsiyasi adolatli va inklyuziv yo'nalishda amalga oshmasa, global iqtisodiyotda tengsizlik chuqurlashadi [1], [2]. "Central Bank Digital Currencies: Motives, Economic Implications and the Research Frontier" (Auer et al., BIS, 2022) nomli ilmiy maqolada markaziy bank raqamli valyutalari (CBDC)ning joriy etilishi jahon moliyaviy tizimi transformatsiyasining muhim qismi ekanligi ta'kidlanadi. Mualliflar raqamli valyutalar nafaqat texnologik yangilik, balki moliyaviy barqarorlik, to'lov tizimlari samaradorligi va xalqaro valyuta munosabatlarida yangi bosqichni boshlab berishini qayd etadilar. Shu bilan birga, maqolada markaziy banklar uchun yangi xavflar — raqamli xavfsizlik, monetar siyosatga ta'sir va tijorat banklari o'rnining o'zgarishi kabi omillar ham ko'rsatib o'tilgan [3].

Kanad Bagchi o'zining "Depoliticizing Money: How the International Monetary Fund Transformed Central Banking" maqolasida jahon moliya institutlari, siyosatshunoslar va iqtisodchilar tomonidan keng sitata qilinadi, chunki u markaziy banklar va IMFning global iqtisodiyotdagi roli hamda transformatsiya jarayonini tushuntiradi [4].

M. Yu. Golovnin tomonidan yozilgan "Transformation of the Global Financial System in the First Two Decades of the Twenty-First Century" maqolasida global moliyaviy tizim endi avvalgidek yagona liberal modelga emas, balki mintaqaviy, raqamli va regulatsiyalangan tizimga asoslanishi qayd etilgan. Bu esa moliyaviy barqarorlikni oshiradi, biroq integratsiyani biroz susaytirishi haqidagi fikr ilgari surilgan [5]. Начало формы

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolada jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasini davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha konseptual yondashuvlar tavsiflangan. Moliyaviy tizim transformatsiyasining davlat mexanizmini asoslashda konseptual yondashuv, tahlil, sintez, mantiqiy bog'lash va abstraktiv yondashuv usullaridan foydalanilgan. Xususiyl holatlarda tizimli tahlil, institutsional tahlil, tarixiy-komparativ metod, empirik tadqiqot usullari, iqtisodiy-statistik tahlil hamda PEST tahlil — siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik omillarning jahon moliyaviy tizimiga ta'sirini baholash metodlari qo'llanilgan. Tadqiqot mavzusining ilmiy manbalari tizimli va multiplikatorlik tamoyillari asosida tahlil qilinib, konsepsiyalarni asoslashda statistik tahlil usullaridan foydalanilgan. Начало формы

## TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasi — bu texnologik rivojlanish (fintech va blokcheyn kabi), global siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, regulativ islohotlar hamda global iqtisodiyot integratsiyasiga ta'sir qiluvchi asosiy omillar ta'sirida sodir bo'ladigan fundamental o'zgarishlar jarayonidir. Bu transformatsiya moliyaviy xizmatlar, qimmatli qog'ozlar bozorlari, valyuta tizimlari va banklar faoliyatiga ta'sir ko'rsatmoqda.

Transformatsiyaning asosiy omillari

Fintech va raqamli texnologiyalar: raqamli to'lovlar, mobil banking va raqamli valyutalarning rivojlanishi an'anaviy banklarga raqobat yaratmoqda hamda moliyaviy xizmatlarga kirishni osonlashtirmoqda.

Blokcheyn va kriptovalyutalar: ushbu texnologiya moliyaviy tranzaksiyalarni xavfsiz va shaffof o'tkazishga imkon beradi, bu esa an'anaviy vositachilarga bo'lgan zaruratni kamaytiradi.

Global iqtisodiy o'zgarishlar: g'arb iqtisodiyotlarining ulushi kamayib, Osiyo va boshqa rivojlanayotgan iqtisodiyotlarning o'rni ortishi moliyaviy oqimlarni o'zgartirmoqda.

Regulyativ siyosat: hukumatlar va xalqaro tashkilotlar o'zgaruvchan moliyaviy landshaftga moslashish uchun yangi qoidalarni ishlab chiqmoqda va amaldagi qoidalarni yangilamoqda.

Transformatsiyaning oqibatlari

Moliyaviy xizmatlarga kirishni oshirish: kichik bizneslar va xususiy shaxslar uchun moliyaviy xizmatlarga kirish osonlashmoqda.

Xarajatlarni kamaytirish: raqamli texnologiyalar va blokcheyn texnologiyasi orqali tranzaksiyalar samaradorligi oshib, xarajatlar kamaymoqda.

Iqtisodiy muvozanatning o'zgarishi: raqamli valyutalar va yangi moliyaviy vositalar an'anaviy valyutalar va to'lov tizimlariga ta'sir ko'rsatmoqda.

Yangi xatarlar: raqamli texnologiyalarning rivojlanishi kiberxavfsizlik, moliyaviy firibgarlik va ma'lumotlar himoyasi kabi yangi xatarlarni yuzaga keltirmoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlar global moliyaviy tizimning o'zgarish jarayonlarining asosiy tashabbuskorlari ekanligi ko'rsatiladi (shu jumladan, xalqaro hisob-kitoblarda dollarsizlashtirish va transchegaraviy to'lovlarda milliy valyutalardan kengroq foydalanishga o'tish, shuningdek, xalqaro zaxiralarda pul oltinining ulushini oshirish). Shu bilan birga, rivojlangan mamlakatlar valyuta "afzalliklari" jihatidan ancha an'anaviydir. Bunday sodiqlik Buyuk Britaniya, Italiya, Kanada, Germaniya, Fransiya va Yaponiya (Yettilik guruhining oltita mamlakati) ning 2008–2009-yillardagi inqiroz, Yevropa qarzi inqirozi, COVID-19 pandemiyasi hamda 2022–2024-yillarda geosiyosiy keskinliklar oqibatida oxirgi 15 yil ichida AQShga keng tarqalgan qaramligi natijasida yuzaga keladi. Rivojlangan mamlakatlarda bu ortib borayotgan qaramlik ularni AQSh dollaridan voz kechishga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, uning to'lov vositasi, jamg'arma va xavflardan himoya qilish usuli sifatidagi ahamiyatini oshiradi. O'tkazilgan tahlil rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarning moliyaviy tizimlaridagi ko'p yo'nalishli tendensiyalarni aniqladi. Turli mamlakatlarning moliyaviy tizimlari o'rtasidagi global o'zaro ta'sir natijasi turli omillarga bog'liq bo'lib, bu ham global moliyaviy tizimning o'zgarishiga, ham mavjud modelning barqarorligini saqlashga hissa qo'shishi mumkin.

AQSh va Xitoy o'rtasidagi moliyaviy hamda iqtisodiy hamkorlikning buzilishi, iqtisodiy sanksiyalarning o'sishi va zaxira valyutalardan moliyaviy qurol sifatida foydalanish, jahon rivojlanishini barqarorlashtirishni cheklash maqsadida gegemon davlatning raqiblarni cheklashga intilishi, AQShning asosiy xalqaro pul va moliyaviy institutlar ustidan nazoratni saqlab qolishi, AQSh dollarining jahon moliyaviy va pul tizimidagi markaziy roli, globalizatsiya tendensiyalarining teskari burilishi, iqtisodiy millatchilikka qaytish hamda savdo va investitsiya oqimlarining geosiyosiy ittifoqdoshlar tomon yo'naltirilishi global moliyaviy tizimdagi beqarorlik va o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi asosiy omillardir.

Ko'pchilik mamlakatlarning xalqaro likvidlikka kirish imkoniyatini kengaytirish markaziy banklarning raqamli valyutalarini joriy etish va ularni xalqaro hisob-kitoblarda, jumladan, raqamli multiplatformalar orqali qo'llash orqali ko'rib chiqilmoqda. Shu bilan birga, AQShning GMFS ustidan yagona nazoratni saqlab qolishga bo'lgan ambitsiyalari uning parchalanishi xavfini yaratadi.

Muallif global moliyaviy va pul tizimidagi parchalanish jarayonlarini aniqlash hamda uning asosiy institutsional xususiyatlarini tahlil qilish uchun tarixiy-mantiqiy va tizimli yondashuvlardan foydalanadi. Ushbu yondashuvlar orqali ishlatilgan tushunchalar kategoriyalari aniqlanadi va global moliyaviy tizimning parchalanishiga olib keluvchi asosiy omillar hamda institutsional mexanizmlar tavsiflanadi. Maqolada raqamli statistik modellar yoki matematik prognozlash usullari qo'llanilmagan; tahlil sifatli yondashuvga asoslangan bo'lib, tarixiy sabablar, tizim tuzilmasi va institutsional o'zaro ta'sirga e'tibor qaratilgan. Начало формы

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu ilmiy maqolada jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasi jarayoni nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, global moliyaviy tizimda sodir bo'layotgan o'zgarishlar asosan raqamli texnologiyalar rivojlanishi, markaziy bank raqamli valyutalarining (CBDC) joriy etilishi hamda geosiyosiy raqobatning kuchayishi bilan bog'liqdir. Tahlillar asosida aniqlandiki, jahon moliyaviy tizimi hozirda an'anaviy dollar ustunligiga asoslangan modeldan bosqichma-bosqich yangi ko'rinishga o'tmoqda. Bu jarayonda raqamli to'lov tizimlari, fintech yechimlari va yangi moliyaviy instrumentlar xalqaro hisob-kitob tizimlarining tuzilishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.



Shuningdek, CBDClarning rivojlanishi xalqaro valyuta munosabatlarida yangi imkoniyatlar yaratishi bilan birga, an'anaviy bank tizimi faoliyatiga ham o'zgarishlar olib kelishi mumkinligi aniqlandi. Global moliyaviy tizimdagi o'zgarishlar davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarga ham ta'sir ko'rsatib, ayrim hollarda hamkorlikning yangi shakllarini shakllantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Rivojlanayotgan davlatlar uchun ushbu jarayon milliy moliyaviy tizimni modernizatsiya qilish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va xalqaro moliyaviy jarayonlarda faolroq ishtirok etish imkonini beradi.

Umuman olganda, jahon moliyaviy tizimining transformatsiyasi texnologik va institutsional o'zgarishlar asosida kechayotgan murakkab jarayon bo'lib, u global iqtisodiy munosabatlarning kelajakdagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilab bermoqda.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Stiglitz, J. E. (2002). *Globalization and Its Discontents*. New York: W. W. Norton & Company.
2. Stiglitz, J. E. (2010). *Freefall: America, Free Markets, and the Sinking of the World Economy*. New York: W. W. Norton & Company.
3. Auer, R., Cornelli, G., & Frost, J. (2022). Central bank digital currencies: Motives, economic implications and the research frontier. Bank for International Settlements (BIS) Working Paper No. 976. <https://www.bis.org/publ/work976.htm>
4. Depoliticizing money: how the International Monetary Fund transformed central banking (Kanad Bagchi) — *Journal of International Economic Law*, 27(1), 166185 (2024).
5. Golovnin, M. Yu. (2021). Transformation of the Global Financial System in the First Two Decades of the Twenty-First Century. *World Economy and International Relations*, 65(12), 5–15.
6. Bondarenko, K. A., & Sannikov, O. A. (2025). Architecture of the Global Financial System: Transformation vs Stability? *Spatial Economics*, 1, 136–162. <https://doi.org/10.14530/se.2025.1.136-162>
7. Kuznetsov, A. V. (2025). Fragmentation of the Global Monetary and Financial System. *Vestnik RUDN. International Relations*. Retrieved from [https://journals.rudn.ru/international-relations/article/view/43458/en\\_US](https://journals.rudn.ru/international-relations/article/view/43458/en_US)

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

**2026. № 5**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)